



**LACK OF ADAPTABILITY IN THE PROCESS OF MILITARY-
PROFESSIONAL TRAINING**

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10210684>

Umarov Muhyddin Muysinovich

By the head of the academy on study affairs

Deputy

ABSTRACT

This article studies the pedagogical aspects of the uniqueness of flexibility in the process of military professional training, as well as the shortcomings encountered in preparing for professional skills, and ways to eliminate these shortcomings.

Key words

Military forces, teacher, didactics, officer, military, knowledge, education, charm, determination, quality.

**XARBIY-KASBIY TAYYORGARLIK JARAYONIDA
MOSLASHUVCHANLIKNI OZIGA XOSLIGI**

Umarov Muhiddin Muysinovich

Akademiya boshlig'ining o'quv ishlar bo'yicha

O'rinbosari

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada harbiy-kasbiy tayyorgarlik jarayonida moslashuvchanlikni o'ziga xosligining pedagogik jihatlari, shuningdek, kasb mahoratiga tayyorgarlik ko'rishda uchraydigan kamchiliklar va bu kamchiliklarni bartaraf etish yo'llarini o'rganishdan iborat.

Kalit so'zlar

Kurolli Kuchlar, pedagog, didaktika, ofitser, xarbiy, konikma, tabliy-tarbiya, gaziba, majburiyat, sifat.

АННОТАЦИЯ

В данной статье изучаются педагогические аспекты своеобразия гибкости в процессе военно-профессиональной подготовки, а также недостатки, встречающиеся при подготовке к профессиональному мастерству, и пути устранения этих недостатков.



Ключевые слова

Военные силы, педагог, дидактика, офицер, военные, знания, образование, обаяние, целеустремленность, качество.

Ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish jarayonida zamonaviy ilm-fanda kasbiy adaptatsiyaning boshlang'ich bosqichi borasida qarashlarning rang-barangligi, umume'tirof etilgan aniq bir yondashuvning mavjud emasligi aniqlandi. Ilmiy manbalarni ko'rib chiqish jarayonida tadqiqot ishimizda belgilangan vazifani hal qilishda diqqatga sazovor ikki yondashuvga e'tibor qaratdik, bular: kasbiy adaptatsiyaning dastlabki bosqichi insonni kasbga oldindan tayyorlash, kasb. Tanlash va individning kasbiy fazilatlarini shakllantirish muhiti sifatida oiladagi kasbiy an'analar, maktabda va kasbiy ta'lim muassasalaridagi o'qishiga bog'liq; korxonalarda belgilangan lavozim majburiyatlariga muvofiq xizmat vazifalarini bajarishga ko'nikish jarayonini kasbiy adaptatsiyaning dastlabki bosqichida amalga oshirilishi bilan bog'liq.

Maktabgacha ta'lim muassasasi, harbiy oilalardagi an'ana va tarbiya, Temurbeklar maktabidagi ta'lim-tarbiya jarayoni harbiy ta'lim muassasasiga kelgungacha ilk harbiy hayot ko'nikmalarini shakllantiradi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 4 avgustdagi PQ-3898-son qaror bilan tasdiqlangan Konsepsiyaning 3-bobi 8-bandida belgilangan birinchi bosqichni [6] bo'lajak harbiy mutaxassisning kasbiy tayyorgarlik jarayonini "oldindan tayyorlash" bosqichi deb atash maqsadga muvofiq, deb bildik. Mamlakatimizda bunday harbiy sulolalar kam emas. Bu an'analarni davom ettirish va targ'ib etish lozim, erta bolalikdan boshlab insonda boshlanadigan muayyan ma'naviy-axloqiy xususiyatlarni, qadriyatlarni shakllantirish lozim.

Kasbga moslashuv muammolarining pedagogik jihatlarini o'rganish faoliyat motivatsiyasi nazariyalari bilan chambarchas holda olib boriladi. Kasbiy faoliyatning muvaffaqiyati ijtimoiy-psixologik va ijtimoiy-pedagogik xarakterga ega bo'lgan psixologik-pedagogik talablar bilan ifodalanuvchi ko'pgina omillarga bog'liqligi ma'lum. Shubhasiz, o'quv va kasbiy motivatsiya kuchlari va uning tarkibiy qismlari ta'lim faoliyatidagi muvaffaqiyatlarga juda katta ta'sir ko'rsatadi. Motivatsiya qanchalik yuqori bo'lsa, faoliyat natijasi yanada sifatli bo'ladi. Biroq, to'g'ridan-to'g'ri aloqa faqat muayyan cheklolarga qadar, ma'lum darajada maqbul darajaga erishguncha saqlanib qoladi, ammo motivatsiya haddan ziyod oshirilsa, faoliyat samaradorligining pasayishi kuzatiladi. V.A. Romanovning [126; 345-352-b.] ta'kidlashicha, muayyan kasbga o'qitishdagi motivatsiya shaxsning kasbiy rivojining har bir bosqichida asosiy omil bo'ladi. V.A. Romanov o'zlashtirilayotgan kasbiy faoliyat bilan ta'limda bevosita va bilvosita motivlarning



o'zaro yaqinligiga bog'liq holda motivatsiya tarkibiy elementlari sifatida ko'rib chiqishni taklif qiladi: dastlabki guruh motivlarga – professional faoliyat doirasidan tashqarida bo'lgan qadriyatlar va maqsadlar bilan bog'liq bo'lgan, ammo uning doirasida erishish mumkin bo'lgan motivlar, ya'ni maqsadga erishish motivlari, mazmunli va rag'batlantiruvchi motivlar kiradi. Keyingi motivlar guruhiga – bevosita kasbiy faoliyat jarayoniga kiritilgan va uning doirasida erishilgan qadriyatlar va maqsadlarga mos keladigan motivlar: o'zini namoyon etish va rivojlanish motivlari, bilimga asoslangan motivlar va boshqalar kiradi. Ko'pgina tadqiqotchilar motivatsiya tarkibini o'rganishda motivlarni ular egallayotgan kasbiy faoliyat bilan o'zaro aloqadorlik mezoniga ko'ra bevosita va bilvosita ikki guruh motivlarga ajratishni tavsiya etadilar.

Shunday qilib, adaptatsiyani hodisa sifatida o'rganishda quyidagi dolzarb tendensiyalarni ko'rsatib o'tishimiz mumkin: differentsiatsiya va adaptatsiya tushunchasini biri-biriga o'xshash va ma'nosi bo'yicha yaqin bo'lgan tushunchalar (moslashish, reaksiya, moslashuvchanlik, atrof-muhit sharoitlariga passiv javob, boshqarilmaydigan sharoitlar va boshqariladigan tashqi muhit sharoitlariga reaksiya va boshqalar)dan ajratish.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI:

1. O'zbekiston Prezidenti, Qurolli Kuchlar Oliy Bosh Qo'mondoni Shavkat Mirziyoev "O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tashkil etilganining 30 yilligi munosabati bilan Vatan himoyachilariga bayram tabrigi". (murojaat canaci 18.01.2022 yil).

2. Busurova V.G., Shiroqova I.K. Individualno-lichnochnye predpochylki ucpehnocti obucheniya va adaptatsii kurcantom morckix uchilishch.

L.: Leningradskiy universiteti, 1984 yil.

3. Bogatov V.A. Rol camoctoyatelnoy podgotovki kurcantom v period adaptatsii k voennomu obrazovaniyu: Kval. rabota. Bogatov V.A. – T.: 2018 yil.

4. Sotib-Aldiev A.A. Ofitser-o'qituvchining pedagogik laboratoriyasi.

– T.: O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari Akademiyasi, 2019. .

5. Lewin K. Group decision and social change. Readings in social psychology. - New York, Henry Holt, 2003.